

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**
**Researchbib Impact factor: 11.79/2023
SJIF 2024 = 5.444**
Том 2, Выпуск 3, 31 Март

TURIZMNING MILLIY IQTISODGA TA'SIRI

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Turizm (faoliyat yo'naliishlari bo'yicha) yo'naliishi talabalari

Boboxonov Umidjon Baxtiyor o'g'li

Choriyev Jasur Baxodir o'g'li

Ziyodullayev Asliddin Mamayusupovich

Mamayusupov Elyor Jahongirovich

Komilov Mavlonbek Kozimjon o'g'li

Annotatsiya: Ushbu maqola mazmuni shundaki, turizm sohasi rivojlanishi yuzasidan iqtisodga nechog'lik foyda keltirilishi, ijobjiy va salbiy jihatlari ochib berilgan. Shuningdek ehtimoliy pragnoz ham keltirilgan. Turizmning nafaqat iqtisodga bog'liqligi balki barcha iltimoiy fanlarga aloqadorligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: Iqtisod, soliq, turistik bozor, ijtimoiy fan, Buyuk Ipak yo'li, malakali kadir, resurs.

Hozirgi vaqtida jahon iqtisodiyotining rivojlangan mamlakatlarida turizm industriyasi iqtisodiyotning yetakchi tarmog'i hisoblanadi. Mamlakatimiz turizm sohasida ulkan salohiyatga ega bo'la turib, uzoq yillar bu imkoniyatdan to'liq va samarali foydalanilmadi. Turizm rivoji uchun qulay iqtisodiy va tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratilmadi, hamma o'z bilganicha faoliyat yuritib keldi. O'zbekistonda turizm yosh tarmoq hisoblanadi va davlat tomonidan turli yordam choralariga muhtoj edi. Ammo yaqin yillar ichida bu sohaga e'tibor yanada ko'paydi. Bu holat albatta yaxshi. Turizm sohasining milliy iqtisodga keltiradigan foydasi talaygina. Ushbu soha nafaqat iqtisodga balki davlatning barcha ijtimoiy sohasiga ijobjiy natija keltiradi. Ammo shuni ham ta'kidlab o'tishimiz joizki ba'zi hollarda salbiy oqibatlari ham mayjud. Biz bularni quyida ko'rib chiqishimiz mumkin

- Turistlar tomonidan atrof muhitga keltiriladigan zarar (tabiatga, suvg'a, tozalikka va hakazolar)
- Turistlar bilan birgalikda ommaviy madaniyatning kirib kelishi

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 3, 31 Март

- Umumjamoa muhitining buzilishi(ichkilik, ko'ngil xushlikning chegaradan chiqib ketishi)

- Bazi hollarda turistlarning jamoa qoidasini buzishlari kabilar

Mamlakat iqtisodiyoti va turizm bir biri bilan o'zaro bog'liq harakatdadir

. Turizm rivojlanayotgan hudud iqtisodiyotiga katta ta'sir ko'rsatadi. Turizm katta hajmdagi chet el valyutasi oqimini ta'minlaydi , hamda shu jihatdan milliy iqtisodimizga o'zining foydasini keltiradi.

Turizm aholi hayot darajasining oshishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Turizm xizmatlariga qolgan tarmoqlarga qaraganda yuqori haq to'lanadi. Turistik yo'nalishlarni rivojlantirish uchun asosiy omil bu kadrlarning bilimi va tajriba potensialidir. Hozirda respublikamizda turistik yo'nalishlarni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar mavjud bo'lsa ham juda kam yo'nalishlar ishlab chiqilgan. Bu yo'nalishlar faqat —Buyuk Ipak yo'lida joylashgan shaharlarga qaratilgan. Lekin respublikamizda turistlarning ko'rishi va dam olishlari uchun tarixiy va xushmanzara joylar ko'p. Faqat ularni yuqori darajada tanishtirish, yangi yo'nalishlar tizimi va turistlarni o'sha joylarga joylashtirish yo'llari ishlab chiqilishi kerak Turizmning mahalliy aholiga ham ta'siri ayrichadir, misol uchun o'lkadagi muqobil aholi ayni davrda ish bilan ta'minlanadi, turli millat elat va xalq vakillari bilan muloqotda bo'ladilar va ularning turli an'ana qadriyatlari bilan tanish bo'ladilar, doimiy daromat olib turish imoniga ega bo'lidilar, mahalliy aholi imkon qadar o'zlarining milliyliklarini namoyish qilish maqsadida ularni saqlab qolish unutilganlarini yodga olishga erishadilar, turli xalqlardagi mehmon kutish an'analarini o'rganadilar o'z milliy mehmondorchiliklarini namoyish qiladilar. Bu kabi imkoniyatlar orqasidan mahalliy aholining dunyoqarashi, madaniy saviyasi o'sib rivojlanib boraveradi. Turizm iqtisodiyotning tarkibiy qismi sifatida turistlar qabul qiluvchi mamlakatga daromadni keltiradi, yuqori valyuta tushumini ta'minlaydi, aholini ish bilan bandlik darajasini oshiradi. Turistlarga xizmat qilish uchun mehmonxona kerak bo'ladi. Yaqin insonlariga hadya sotib olishadi, milliy hunarmandchilik mahsulotlarimiz bozori kengayadi. Bu yerda ular ovqatlanishi lozim. Turli tomoshalarga kiradilar va ularda qatnashadilar. Ko`p hollarda agar ular xorijiy turistlar bo'lsa, valyuta tushumining ko`payishini ta'minlaydi. Turizm nafaqat iqtisodiy, balki muhim ijtimoiy soha hamdir. Buning iqtisodiy samaradorligi bilan birga ma'naviy, ruhiy va intellektual ahamiyati ham juda katta.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 3, 31 Март

Turizm sohasi iqtisodiyotimizga ko'p tomonlama foyda keltiradi. bularga misol tariqasida quyidagilarni keltiramiz:

- Qo'shimcha ish o'rnlari yaratilishi oqibatida aholi bandligi ta'minlanadi.
- Tarixiy -madaniy obektlarimizga e'tibor ortadi
- Qishloq joylardagi mahalliy aholi tomonidan yasalgan hunarmadchilik buyumlari haridori ortadi
- Turistik hududlarga e'tibor o'rtishi natijasida hududda urbanizatsiya darajasi oshadi
- Davlatning soliq tushumi ortadi
- Milliy hunarmandchilik mahsulotlarimiz dunyo brendi darajasiga ko'tarilib ketishi ehtimoli mavjud bo'ladi

Maqola so'ngida shuni xulosa qilamizki ko'p tarmoqli bo'gan turizm sohasi iqtisodning noishlab chiqarish tarmog'idi.

Dunyo aholisi qiziqish uyg'atayotgan yangi soha turizm o'zini oqlamoqda. U xoh ta'limda bo'lsin, xoh tibbiyotda har sohada rivojlaib iqtisodga foyda keltirmoqda. Biz ham bu holatga to'g'ri baho bergen holda turizmni jadal rivojlantirmog'imiz darkor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Turizm: nazariya va amaliyot : darslik / Boltabayev M. R., Tuxliyev I. S., Safarov B. Sh., Abduxamidov S. A.. - Toshkent : Barkamol fayz media, 2018. - 400 b
2. Иқтисодиёт ва менежмент асослари : ўқув қўлланма / Икромов М., Солиев А. С.. - Тошкент : Vneshinvestprom, 2019. – 28
3. M.Amonboyev, N.Juraeva —Turizm iqtisodiyoti va menegmenti|| O_ quv uslubiy majmua 2018 yil 0 б;
4. www.uzbekturizm.uz sayti ma'lumotlari.